

QADIMGI BAQTRIYANING ILK TEMIR DA VRI DEHQONCHILIK VOHALARI VA QISHLOQ XO'JALIGIGA DOIR MULOHAZALAR

F. X. Ishquvatorov

Oriental universiteti I bosqich magistri

H. H. Shodmonov

O'zbekiston Milliy universiteti II bosqich magistri

Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida O'rta Osiyoda ham dastlabki temir buyumlar paydo bo'ldi. Mutaxassislar fikricha, temirdan foydalanishning boshlanishi va asta-sekinlik bilan mintaqalab bo'yab keng yoyilishi mil. avv. X-VI asrlarga to'g'ri keladi¹. "Avesto" da temirning kashf etilganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, "Kichik Avesto" dagi "ayah" so'zini V. Geyger "temir" deb o'qigan bo'lsa, A. Bartolome esa bu terminni umumlashtirib "metall" deb tarjima qilganligidan ham ma'lum bir xulosaga kelish mumkin.

Temir metallurgiyasining paydo bo'lishi, mintaqadagi ko'pgina yirik daryo vodiylarida sug'orma dehqonchilikning keng yoyilishi, qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi va shaharsozlik madaniyatining rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o'zgarishlarga olib keldi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida Baqtriya hududlarida ko'pgina tarixiy-madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan:

1. Temir buyumlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi
2. Qal'alari bo'lgan qishloqlaring paydo bo'lishi va keyinchalik ularning shaharlarga aylanishi.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o'zgarishi.
4. Sharqiy Eron qabilalarining migratsiyasi².

Temirdan dehqonchilik ishlarida foydalanilgan. Temirdan yasalgan quollar daraxtlarni kesish, yangi erlarni o'zlashtirish va boshqa ishlarda muhim sanalgan. Yerni haydashda so'qa, omoch tishlarining temirdan yasalishi mehnat unumdorligini bir necha marta oshishiga xizmat qilgan.

Shimoliy Baqtriyaning mil. av. I ming yilliklarning boshlariga oid manzilgohlari Surxon va Sherobod daryolarining bo'yalarida Sopolli madaniyatining davomi sifatida rivojlangan. Surxon va Amudaryolarning o'rta oqimi, Kofirnigon, Vaxsh va Panj daryo vohalari esa dehqonlar tomonidan mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida o'zlashtirilgan.

Baqtriyaning ilk temir davri manzilgohlarni rayonlashtirish borasida ham bir qancha qarashlar mavjud. Bronza davrida o'troq dehqonchilik manzilgohlari asosan Baqtriyaning shimoli-g'arbida rivojlanib, ilk temir davrida bu ko'lam kengayib shimoli-sharqiy hududlarni ham qamrab olgan. Tog' oldi hududlarida

¹Сагдулаев А.С. Заметки о раннем железном веке Средней Азии // СА – М. 1982 – №2. – С. 233

²Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. – Т. 2012. 49-б.

aholi turmush tarzi yanada taraqqiy topgan bo'lsa, Surxondaryo, Konfirnihon, Vaxsh, Yavansuv atroflarida yangi vohalar o'zlashtiriladi.

E.V.Rtveladze Baqtriyadagi bu davrga oid tadqiqotlarni umumlashtirib, hududda yashagan aholi joylashuvini quyidagicha ta'riflaydi:

1. Ulanbuluoqsoy – Amudaryoning irmog'i hisoblanib, Ulanbuluoqsoy vohasida Kuchuktepa va Dabilqo'rg'on yodgorliklari joylashgan.
2. Sherobod – Amudaryoning irmog'i bo'lib, Sheroboddaryoning o'rta oqimida joylashgan. Bronza davrida Sheroboddaryoning o'ng qirg'og'ida manzilgohlar paydo bo'lgan. Keyinchalik chap qirg'oq hududlari ham o'zlashtirilib vohaning chegarasi Angor hududigacha cho'zilgan.
3. Urgul (Bandixon) – Bandixonsoyning o'rta oqimida joylashgan. Dastlabki o'ng qirg'oqdagi Bandixon I va II inqirozga uchrab, chap qirg'oqda yangi manzilgoh – G'ozimullatepa I paydo bo'ladi.
4. Halqajar – Surxondaryoning o'ng irmog'i Halqajar vohasini qamrab olgan. Bronza davrida bu yerdagi irmoq havzalari o'zlashtirilgan bo'lsa, milloddan avvalgi VII asrdan boshlab daryoning chap qirg'og'ida manzilgohlar paydo bo'ladi. Bu vohadagi eng yirik yodgorlik Qiziltepa ko'hna shahri hisoblanadi.
5. Yuqori Surxon – Surxondaryoning o'rta oqimi havzasida joylashgan.
6. O'rta Surxon-Surxondaryoning o'rta oqimi havzasida joylashgan bo'lib, bu vohadan ikkita manzilgoh Hayitobodtepa va Nomsiztepa aniqlangan.
7. Amudaryo – Termizdan Boldirgacha bo'lgan Amudaryoning o'rta oqimi havzasida joylashagan.
8. Vaxsh-Yavan – Vaxsh va Yavansuv daryolarining o'rta oqimida joylashagan.
9. Quyi Kofirnihon – Kofirnihon daryosining quyi oqimlarini egallaydi. Bu vohadan uchta – Qalaimir, Munchoqtepa va Xirmontepa manzilgohlari aniqlangan.
10. Boytudasht – Panj vohasining yuqori qismidagi Boytudasht mavzesida joylashgan. Bu vohadan unchalik katta bo'limgan sakkizta manzilgoh aniqlangan³.

Sh.B. Shaydullayevning tadqiqotlarida, ilk temir davri yodgorliklari Shimoliy Baqtriyada yetti va Janubiy Baqtriyada esa to'rtta dehqonchilik o'lkalarida mavjud bo'lganligi ta'kidlangan⁴:

1. Sherobod dehqonchilik o'lkasi. Ko'hitangtog' yon bag'ri yaylovlari, Ulanbuluoqsoy va Sherobod daryolari havzalarini o'z ichiga oladi. Kuchuk I davrida vohaning markazi vazifasini Kuchuktepa yodgorligi bajargan bo'lsa, Qadimgi Baqtriya madaniyati davriga kelib, bu o'lkada Jondavlattepa shahri bunyod etiladi va u vohaning markazi vazifasini o'tagan. Agar Kuchuktepa strategik jihatdan noqulay, kichik suv o'zani bo'yida joylashgan bo'lsa, Jondavlattepa Sherobod daryo o'zanida, xalqaro savdo, ya'ni Maroqand - Baqtra yo'li ustida joylashganligi bilan xarakterlanadi. Sherobod dehqonchilik o'lkasida Jondavlattepedan tashqari Kuchuktepa, Talashqontepa I kabi yodgorliklar ham joylashgan.
2. Boysun dehqonchilik o'lkasi o'z tarkibiga Boysuntog' yon bag'ri yaylovlari, Bandixonsoy, Mirshodi suv havzalarini birlashtiradi. Hamma suv havzalarini Boysuntog'dan boshlanishi bilan xarakterlanadi. Vohaning markazi maydoni 22 gektardan iborat bo'lgan Qiziltepa hisoblangan. Qiziltepa atrofida kichik yodgorliklar guruhi joylashgan.
3. Surxon dehqonchilik o'lkasi Surxondaryoning o'rta oqimi hududlarini birlashtirgan. Bu yerda Xaitobodtepa vohaning markazi vazifasini bajargan. Xaitobodtepa yodgorligiga ham Qadimgi

³ Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. –Т., 2012. 50-51 б.

⁴ Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Т.ф.д. дис. – Самарқанд, 2009. 58-6.

Baqtriya madaniyati davrida asos solingan. Xaitobodtepa atrofida ham Bandixonsoytepa kabi qishloq tipidagi yodgorliklar joylashgan.

4. Kofirnihon dehqonchilik o'lkasida ikkita sug'orilish rayoni bo'lib, birinchisi Kofirnihon daryosining Changob o'zani hududlarini birlashtiradi. Bu yerda Hisor qal'asining quyi qatlamlari, Tupxona yodgorliklari joylashgan. Ikkinci sug'orilish rayoniga Kofirnihon daryosi o'zanlari kiradi. Bu yerda Qalai-Mir yodgorligi va Naxri-kalon kanali joylashgan. O'lkaning markazi Kalai-Mir yodgorligi hisoblanadi.
5. Vaxsh dehqonchilik o'lkasida ham ikkita sug'orilish rayoni kuzatiladi. Bular Vaxsh daryosining Yavan-su o'zani bo'lsa, ikkinchisi Vaxsh daryosining chap qirg'oq hududlarini o'z ichiga oladi. Yavan-suda Tomoshotepa va SHo'raisoy yodgorliklari, Vaxshda esa Bolday tepe yodgorligi va Bolday kanallari shu davrga tegishli.
6. Panj dehqonchilik o'lkasi shu nomli daryo o'zanlarini o'z ichiga olib, bu o'lkada Baydudasht yodgorliklari joylashgan (Baytudasht I-VI). Vohaning markazi Baytudasht IV yodgorligi hisoblanadi.
7. Qizil-su dehqonchilik o'lkasi hududi Qizil-su daryosining quyi oqimlarini o'z ichiga oladi. Bu yerda Makoni-mor yodgorligi joylashgan.

Janubiy Baqtriya hududida shu davr yodgorliklari to'rtta dehqonchilik o'lkasida joylashgan bo'lib, bular Dashtli, Faruxobod, Oltin-Dilyor va Naibobod o'lkalaridir Har bir dehqonchilik o'lkasi alohida joylashgan mustaqil iqtisodiy tuman bo'lib hisoblanadi. Negaki, har bir o'lka o'zining tabiiy yoki sun'iy suv zahirasiga ega. Yana shuni ham aytish mumkinki, har bir dehqonchilik o'lkasi Qadimgi Baqtriya podshohligi tarkibidagi kichik-kichik siyosiy hududlar bo'lib hisoblangan. Har bir dehqonchilik o'lkasi o'zining siyosiy markaziga - bosh shahar yodgorligi va uning atrofida uyushgan qishloqlar tipidagi yodgorliklarni jamlangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilgan A.S. Sagdullayev Baqtryadagi ahamoniylargacha bo'lgan davrdagi manzilgohlarni quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatadi:

1. Mustahkam mudofaa inshoatlari va qal'alari bo'lgan Qiziltepa, Oltindilyor ko'rinishidagi shakllanayotgan yirik markazlar.
2. Bandixon 2 singari mustahkam qal'asi bo'lgan va bir yerda zich joylashgan yirik manzilgohlar.
3. Talashkantepa 1 ko'rinishidagi burjlari va shinaklari bo'lgan alohida qal'alar.
4. Bo'yrahitepa 2 ko'rinishidagi burjlari va shinaklari bo'lgan alohida qal'alar.
5. Qizilchatepa 1,2,6 ko'rinishidagi markaziy va tashqi hovlilar devor bilan o'rab olingan uy-qo'rg'onlar.
6. Kuchuktepa ko'rinishidagi doimiy qurilishlari bo'lgan, ammo keng markaziy va ichki hovlilar bo'lmasan mustahkamlangan uy-qo'rg'onlar.

B.J. Eshov esa manzilgohlarni quyidagi tiplarga ajratadi:

1. Atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan. Sitadeli yirik hajmdagi manzilgohlar (shaharlar) - (Qiziltepa, Hayitobod).
2. Qal'a - qo'rg'onlariga (mudofaa devorlariga ega) imoratlar tutush joylashgan manzilohlar Kuchuktepa (Bandihon, Talashkon 1).
3. Yirik xajmdagi manzilgohlar yoki qadimgi qishloqlar (G'ozimullatepa).
4. Uy-qo'rg'onlari (Qizilcha guruh manzilgohlari).
5. Alohida vazifani bajaruvchi manzilgohlar (diniy inshoatlar) – (Pishaktepa, Pachmaktepa)⁵.

⁵ Эшов Б.Ж. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари. – Т., 1986. 38-б.

Xo'jalik yuritish maqsadida dehqonlar tomonidan o'zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo'lib, o'zlashtirilmagan bepoyon yerlardan farq qilgan holda ularni qadimgi "madaniy xo'jalik vohalar" deb atash mumkin. Uldaring har birida hosildor yerlar va sug'orish tizimidan tashqari uy-qo'rg'onlar va manzilgohlar, ekin ekilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo'lgan. Qadimgi dehqonchilik tumanlarining rivojlanishi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog'liq bo'lib, bu muhit ularni qadimgi madaniy-xo'jalik tumanlari deb hisoblash imkonini beradi.

Mil. avv. II ming yillikning ohirgi va mil. av I ming yillikning boshlariga kelib, Shimoliy Baqtriyada o'ziga xos madaniyat shakllanadiki, buni biz Kuchuk I (mil. avv. 1000-750) Qizil I (mil. avv. 1000-700 yillar) moddiy topilmalari asosida o'rganamiz. Shuning uchun vohaning bu davrga oid madaniyati Kuchuktepa madaniyati nomi bilan mashhur. Bu davr yodgorliklarining hajmi ancha kichik (3 ga. dan oshmaydi). Kuchuktepa manzilgohi baland sahna ustiga qurilgan qo'rg'onchadan iborat bo'lib, atrofida imoratlar joylashgan. Hamda ular mudofaa devorlari bilan o'rangan. Tosh va bronzadan yasalgan mehnat qurollari hamda qurol aslahalari ko'plab topilgan. Keyingi davrda Kuchuktepa madaniyati o'rnida qadimgi Baqtriya madaniyatining vujudga kelganligini hamda ilk shahar madaniyati shakllanganligini ko'rish mumkin. Bu davrga oid Surxon va hasining moddiy madaniyatini, qolaversa shahar madaniyatining bosqichlarini Kuchuk II (mil. av. 750-600) Kuchuk III (mil. av. 600-500), Kuchuk IV (mil. av. 500-350), hamda Qizil II (mil. av. 750-600), Qizil III (mil. av 600-350) doirasida o'rganish mumkin.

Kuchuktepa madaniyati yodgorliklari kichik suv havzalari o'zanlarida joylashgan. Shu davrdan boshlab, sun'iy kanallar qazish yo'lga qo'yilgan (Bandixon kanali). Shimoliy Baqtriya hududida (Surxon-Sherobod vohasida) ikkita dehqonchilik o'lkasini ko'rsatish mumkin. Bular Sherobod va Boysun dehqonchilik o'lkalari bo'lib, ularda Kuchuktepa, Bandixon, Fozimulla, Mirshodi, Qiziltepa, Qizilcha kabi yodgorliklar qad ko'targan. Har bir dehqonchilik o'lkasini kichik hududiy birlashma deb ta'riflasak tarixan haqiqatga yaqin bo'ladi. So'nggi bronza davrida, ya'ni Jarqo-ton yodgorligida jamoalar bir hududda jamlanib, shahar-davlatni tashkil qilgan bo'lsa, ilk temir davriga kelib jamoalarning (yodgorliklarning) dehqonchilik vohalari bo'ylab, suv o'zanlariga tarqalib ketganligini kuzatiladi. Lekin, shunga qaramay har bir dehqonchilik vohasi o'zining shakllanib ketayotgan madaniy va iqtisodiy markaziga (shahriga) va shu markaz atrofiga birlashgan qishloqlariga ega bo'lgan.

Sherobod dehqonchilik vohasi uchun shunday yodgorlik sifatida Jondavlattepani, Boysun dehqonchilik o'lkasi uchun esa Bandixon I yodgorligini ko'rsatish mumkin.

Sherobod dehqonchilik vohasi Ko'hitangtog' yaylovlari, Ulanbuluoqsoy va Sherobod suv havzalarini qamrab olgan. Boysun dehqonchilik vohasi esa Boysuntog' yaylovlari, Bandixon, Mirshodi suv havzalarini o'z ichiga olgan. Bandixon I kichik suv havzasi bo'ylarida, ya'ni strategik noqulay joyda joylashganliklari tufayli, Qadimgi Baqtriya madaniyati davriga kelib, vohadagi boshqa manzilgoh voha markaziga - shahriga aylangan. Sherobod vohasida Jondavlattepa, Boysun vohasida esa Qiziltepa yodgorliklari voha, ya'ni "nom" tipidagi hududiy davlatlar markazlariga aylangan⁶.

Vohadagi yirik madaniy markazlardan biri bu Qiziltepadir. Maydoni 22 ga. Yodgorlik ark, shahar va shahar atrofidan iborat. Manzilgoh Qizil I o'rnida kengayib asosiy qismi shakllanadi. Manzilgoh shimoli-g'arbida ark barpo etilib, ularning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Qiziltepaning vohadagi boshqa manzilgohdan har tomonlama va alohida ajralib turish madaniy-iqtisodiy hamda ma'muriy markaz vazifasini o'taganligidan dalolat beradi.

Sherobod vohasidagi Talashkon I ham diqqatga sazovordir. U istehkom qal'adan iborat bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'rangan. Devorlar minoralar bilan kuchaytirilib, ularda shaxmat shaklidagi ikki qator shinaklar aniqlangan. Qal'acha ichidagi uylar uning devorlariga taqab qurilgan. O'rtasi hovli sifat ochiq qoldirilgan. Kichik vohalaridagi markaziy manzilgoh atrofidagi manzilgohlarda ham uy-joy va ho'jalik

⁶ Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Т.ф.д. дис. – Самарқанд, 2009. 188-6.

imoratlari aniqlangan. Ularning barchasi hom g‘isht va paxsadan barpo qilingan.

Qadimgi Baqtriya hududlarida chorvachilikning ham yaxshi rivojlanganligi to‘g‘risida Kuchuktepa va Bandixondan topilgan hayvon suyaklari yetarlicha ma’lumot beradi. Topilmalarga ko‘ra Shimoliy Baqtrianing qadimgi aholisi qo‘y, echki, qoramol, ot va boshqa shu kabi hayvonlarni boqishganlar.

Qadimgi davr xo‘jalik hayoti hususida yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. “Avesto” da ham tilga olingen ayrim qabilalar chorvachilik bilan hyot kechirganlar. “Avesto” kitoblarida qadimgi chorvachilik hayoti haqida ma’lumotlar turli qismlarida saqlanib, bunday xabar qilinadi: “Axuramazdaga murojaat qilib, payg‘ambar ayturki: “Sen o‘sha, kim bizga hayot manbasi chorvani dunyoga keltirib, yaratgansan””.

Avestoda asosiy boylik sifatida chorva e’tirof etilgan. Zaratushtra o‘z ta’limotida “Chorvaga yaxshi ega kerak, chorva egalariga men erkin yurishni va erkin hayotni ta’min qilaman” deydi (Yasna, 24. Gatlar). Ana shu erkin hayot egalari oriylar edi. Avestodagi chorvadorlar toifasi bu kohinlar va jangchi oriylarning mol-qo‘ylari hamda yilqilarini boquvchi cho‘ponlar hisoblangan⁷.

“Biz Axuramazdani ulug‘laymiz, u chorvani, suv va o‘simpliklarni, yorug‘lik va yerni yaratib, boshqa yaxshiliklarni ham vujudga keltirgan. Axurumazda yaratgan barcha narsaning ichida birinchi o‘rinda chorva turadi. Biz chorvaga tinch o‘tlov va yemish ta’minalashga chaqiramiz”.

“Avesto” ning eng qadimgi to‘plamlarida dehqonchilik haqida ma’lumotlar uchramaydi. Videvdat qismida dehqonchilik savob ish deb hisoblangan: “Kim agar so‘l va o‘ng qo‘li, o‘ng va so‘l qo‘li bilan bu zaminga ishlov bersa, o Spitama Zaratushtra, u yerga manfaat keltiradi”⁸.

Aholining asosiy mashg‘uloti sug‘orma dehqonchilik bo‘lib kichik daryolardan anhorlar orqali suv chiqarilgan, yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri daryolardan ariqlar orqali suv chiqarilgan. Katta anxorlardan birining izlari Bandixondan topib tekshirilgan. Bu yerda boshoqli o‘simpliklar poliz va bog‘dorchilik rivojlangan. Arpa, bug‘doy, tariq donlari va ular uchun kavlangano‘ralar, un va bug‘doy saqlash uchun ishlatilgan xumlar va xumchalar jamoalarining itisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Yerni haydab dehqonchilik qilish, sun‘iy sug‘orish ishlarini keng yo‘lga qo‘yish, don ekish, chorva uchun xashak bo‘ladigan o‘simpliklarni o‘stirish, mevachilikni rivojlantirish- iqtisodiy hayot asosini tashkti etgan.

Demak, sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik ham Qadimgi Baqtriya madaniyati davrida o‘zining eng rivojlangan cho‘qqisiga yetgan. Bandixon dehqonchilik o‘lkasidagi Bandixon kanali, Vaxsh dehqonchilik o‘lkasidagi Bolday kanali, Kofirnihon dehqonchilik o‘lkasidagi Naxri-kalon kanallari fikrimizning isboti sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Shimoliy Afg‘oniston hududidagi qadimgi dehqonchilik o‘lkalarini asosan Balxob daryosining quyi oqimlarida joylashgan va doimiy suv bilan ta’minalangan. Faqat Naibobod dehqonchilik o‘lkasi bundan mustasno, bu o‘lka qisqa muddatli tabiiy suv bilan ta’minalangan, xolos. Dashtli, Oltindilyor dehqonchilik o‘lkalarida Qadimgi Baqtriya madaniyati davrida ilk marotaba kanallar qazilgan.

Umuman olganda, Baqtriyada mil. av. I ming yillikning birinchi yarmida o‘n to‘rttadan ortiq dehqonchilik vohalari o‘zlashtirilib, turli shakllardagi manzilgohlarning rivojlanishi kuzatiladi. Har bir vohaning hududi tabiiy chegaralarini, ularning har biri alohida dehqonchilik tumani yoki kichik ma’muriy tuzilmani tashkil etgan. Aholi nisbatan zinch joylashgan o‘troq vohalarda dehqonchilik xo‘jaligi jadal rivojlangan. Qadimgi Baqtriya hududlarida chorvachilikning ham yaxshi rivojlanganligi to‘g‘risida manzilgohlardan topilgan hayvon suyaklari yetarli ma’lumot beradi.

⁷ Аскаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Т: О‘zbekiston. – Б. 95-96.

⁸ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрга Осиё тарихи. – Т., 2004. 49-6.